

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR  
VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI  
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI



**BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ZAMONAVIY  
TENDENTSIYALARI:  
TA'LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI**

**СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ НАЧАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ:  
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ОБУЧЕНИЯ**

**MODERN TENDENCIES OF PRIMARY EDUCATION:  
INTEGRATION OF EDUCATION AND TRAINING**

**“BOSHLANG'ICH TA'LIMNING ZAMONAVIY  
TENDENTSIYALARI:  
TA'LIM VA TARBIYA INTEGRATSIYASI”  
III Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi  
Jizzax shahri, 2023 yil 4 may**

**«СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ  
НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ:  
ИНТЕГРАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И  
ОБУЧЕНИЯ»**  
**III Международная научно-практическая  
конференция**  
**Джизак, 4 мая 2023 г.**

**“MODERN TRENDS IN PRIMARY  
EDUCATION:  
INTEGRATION OF EDUCATION AND  
TRAINING»**  
**III International scientific-practical conference**  
**Jizzakh city, May 4, 2023**

2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 1 Metodik qo‘llanma [Matn]: o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. A. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.

3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.

## OZ KOMPLEKTLI MAKTABLARDA O‘QITISH XUSUSIYATLARI

Musurmonova Maludaxon

Boshlang’ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi  
+99890-9226390, [m.musurmonova@cspi.uz](mailto:m.musurmonova@cspi.uz)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** maqolada oz komplektli maktablar, bunday maktablarning oz komplektli sinflarida ishslashdagi qiyinchiliklar va qulayliklar haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** в статье рассматриваются трудности и удобства работы в школах с малым набором школ, с малым набором классов в таких школах.

**Annotation:** the article discusses the difficulties and conveniences of working in schools with a small set of schools, with a small set of classes in such schools.

Respublikamizning qishloq joylarida kichik va aholi yashaydigan uzoq punktlar mavjud bo‘lib, bu joylarga bir sinfga belgilangan me'yordan anchagina kam bo‘lgan 7 yoshli bolalar bo‘iganda oz kornplektli maktablar tashkil qilinadi. Bunday maktablarda bir o‘qituvchi bir vaqtda bir necha sinfda dars o’tadi. Bu sinflarda soni 3 tadan 30 tagacha o‘quvchi bo‘lishi mumkin. Bir o‘qituvchi hamma (I-IV) sinflar bilan bir vaqtda ishlaydigan maktab bir komplektli maktab deyiladi. Ikkiti o‘qituvchi, uchta (ba’zan to’rtta) sinf bilan ishlaydigan maktab ikki komplektli maktab deyiladi. Ikki komplektli maktablarda uch sinfnı ikki komplektga birlashtirishning ushbu variantlarini amalga oshirish mumkin: 1- va 2-sinflarni, 1- va 3-sinflarni, 2- va 4-sinflarni bir komplektga birlashtirishning mos variantlari tanlanadi. Oz komplektli maktablarda ishslashda o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun bir qator qiyinchiliklar va noqulayliklar mavjud:

1. O‘qituvchi har kuni darsga tayyorlanishi va turli fanlardan eng kamida 8 soat dars o’tishi kerak. Oz komplektli maktablarda darslar bo‘yicha reja tuzish oddiy maktabda bir sinf bilan ishslashga qaraganda ko‘p vaqt talab qilishi bilan ishslash darajasi qiyin. Har kuni 8 yoki 12 ta reja ustida ishslash qiyingga bo‘lmay, balki bularni o‘zaro koordinatsiyalash anchagina vaqt talab qilishi bilan, ularga optimal pedagogik samara beradigan bir butun birlashtirish zarurligi bilan ham qiyindir [1]. Bularning hammasi o‘qituvchidan tegishli bilimlarni bilishdan tashqari, maksimal darajada kuch, sabot, uyushqoqlik, matonat, qat’iyatlikni talab qiladi.

2. O‘quvchilarning bir necha sinfga diqqat e’tiborini taqsimlashi juda qiyin.

3. O‘qituvchi bir sinf bilan darsning yarmi yoki 1/3 qismi davomida shug’ullanishga, darsning qolgan vaqtida o‘quvchilar mustaqil ishslashiga to‘g’ri keladi.

4. O‘quvchilar mustaqil ish bajarayotgan vaqtda o‘qituvchi boshqa sinf bilan band bo‘ladi.

5. Bir sinf o‘quvchilari, ayni vaqtda o‘qituvchi rahbarligida ishlayotgan boshqa sinf o‘quvchilarining xalaqit berishiga qaramay, mustaqil ishlayverishlari kerak.

Shunga qaramay oz komplektli maktab o‘quvchilari uchun bir qator afzallikkari ham mavjud:

1. Sinf o‘quvchilari sonining kamligi (ba’zan 2-3 ta o‘quvchi). Bu o‘qituvchiga tez-tez so‘rab turish, o‘quvchilar bilimlaridagi kamchilliklarni topish va ularni tuzatish imkoniyatlarini beradi.

2. Oz komplektli maktablarda o‘quvchi daftarlarini tekshirishga oz vaqt sarflaydi, u bu daftarlar orqali o‘quvchi qanday va nimadan qiynalayotganini oson aniqlaydi.

3. Oz komplektli maktablar maktab xususiyatiga ko‘ra o‘quvchi darsning taxminan 1/3 qismida mustaqil ishslashga to‘g’ri keladi. Buning o‘quv maqsadlaridan tashqari, katta tarbiyaviy ahamiyati ham bor: iroda mustahkamlanadi, qiyinchiliklarni bartaraf qilish malakasi tarbiyalanadi.

4. Yuqori sinf o'quvchilari quyi sinf o'quvchilariga yordam berishlari mumkin, chunki ular har kuni bir sinf xonasida birga bo'lishadi. Darslarni rejalashtirish ham oz komplektli maktablarda ishni tashkil qilishni aniqlab beruvchi omillardan biridir. Bu rejalashtirish esa har xil ishlarni bir necha sinf bir vaqtida bajarishni ta'minlashdan iborat.

Oz komplektli maktablarda sinf doskasi o'1chamini kattalashtirish kerak. Buning sababi bir necha sinf bilan ishslash sharoitida doskaga, birinchidan, bir necha topshiriq materiallari yoziladi va ikkinchidan, bir necha sinf uchun yoziladi. Shu bilan birga topshiriqlar umumiy maktablardagiga qaraganda to'laroq bayon qilinadi. Chunki, o'quvchilar ulardan o'qituvchining tushuntirishlarisiz foydalanishlari kerak [2]. Oz komplektli maktablar ish tajribasida bu maqsadlarda qo'shimcha yengil ko'chma, osma (yoki tagliklarga o'matilgan) doskalar, uzaytirilgan sinf doskalaridan (tortib turiladigan pardalar bilan ta'minlangan), olib qo'yiladigan (ochiladigan qopqoqli) maxsus doskalardan foydalaniladi.

Oz komplektli maktabda o'quvchilarni o'qitishda har xil jadvallar ham muhim rol o'ynaydi. Bunda, asosan, umumiy ta'lim maktablari uchun mo'ljallangan jadvallarning o'zidan foydalanish mumkin. Oz komplektli maktablar uchun ma'lumotlari o'zgartiriladigan jadvallarning ahamiyati, ayniqsa, katta. Masalan, sodda masalalarning (murakkab masalalarning) qisqa yozuvlari namunalarini o'z ichiga oladigan jadvallarni cho'ntakli qilib tayyorlash maqsadga muvofiq, bu cho'ntaklar son ma'lumotlarni unga teskari masala bilan almashtirish natijasida maqsadni amalga oshirish imkonini beradi. Oz komplektli maktabda algoritmik jadvallarga, ya'ni algoritmik qoidalarni o'z ichiga olgan jadvallarga katta o'rinn berish kerak. Tarqatma-didaktik materiallardan foydalanish ham mustaqil ishlarni muvaffaqiyatlari bajarishga imkon beradi. Ko'pchilik hollarda bular topshiriqli kartochkalardan iborat bo'ladi.

Oz komplektli maktablar barcha maktablar uchun belgilangan dasturlar bo'yicha ishlaydigan va asosan boshqa maktablarga o'xshash usullardan foydalanadilar, lekin bu yerda darsning tashkil etilishiha muhim farqlar bor. Oz komplektli maktabda bolalarni o'qitish ya tarbiyalash o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi [3].

Ikkita sinf bilan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni rejalashtirishda o'qituvchi quyidagi masalalarni hal etishi kerak:

- 1) o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan mashg'ulot vaqtini ratsional taqsimlash;
- 2) o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishlarini to'g'ri tashkil etish;
- 3) mustaqil ishlarni qachon ya qanday tekshirishni oldindan to'g'ri rejalashtirish;
- 4) bir sinfdan ikkinchisiga o'tishni qanday amalga oshirishni hal etish.

Bu masalalarni hal etish uchun o'qituvchi dars jadvalida matematika darsining o'rnini, darsning turini belgilab olishi, darsning minutlar bo'yicha taqsimlangan puxta ya aniq rejasini tuzib olishi lozim.

Dars jadvalida matematika, odatda, birinchi yoki ikkinchi soatga qo'yiladi. Matematika darsini boshqa sinfdagi xuddi shu dars bilan birgalikda bo'lishi eng maqbuldir.

Oz komplektli maktablarda darsning mazmuni ya turiga qarab mashg'ulotlarni birgalikda olib borishning ushbu to'rt turi farq qilinadi:

- a) barcha sinflarda yangi material o'rganiladi;
- b) bir sinfda yangi material o'rganiladi, ikkinchi sinfda esa mashqlar bajariladi;
- c) ikkala sinfda malakalarni mustahkamlash ya rivojlantirish darsi o'tkaziladi;
- d) ikkala sinfda amaliy ishlari yoki ekskursiya o'tkaziladi.

Masalan:

Quyi sinf	Yuqori sinf
Dars mavzusi	Dars mavzusi
Dars maqsadi	Dars maqsadi
1.O'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashi	1. O'quvchilarning mustaqil ishlari
2. O'quvchilarning mustaqil ishlari	2.O''qituvchining o'quvchilar bilan ishlashi
3.O'qituvchining o'quvchilar bilan	3. O'quvchilarning mustaqil ishlari

ishlashi	4.O'quvchilarning mustaqil ishlari
	4.O'qituvchining o'quvchilar bilan ishlashi

1-IV sinflarda darsni tashkil qilish turlaridan birini ko'rib chiqamiz, u ikkinchi yarim yillik uchun, birinchi sinf bolalari mustaqil ishslash malakasiga ega bo'lganlaridan so'ng tavsiya qilinadi.

Darsning bunday tuzilishi ushbu turga mos keladi:

Bir sinfda yangi materialni tushuntirib, qolgan sinflarda o'rganilgan materialni mustahkamlash.

Bir necha sinflar bir vaqtida shug'ullanganida o'quvchilarning mustaqil ishlari alohida o'rinn tutadi. Darsda mustaqil ishslashning mazmuni quyidagicha:

- darsda yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, oldin o'tilgan materialni darslik yoki boshqa manba bo'yicha mustaqil takrorlash;

- darsda o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun mashqlar;

- olingan bilimlarni amaliy qo'llaniladigan turli xildagi mashqlar.

Mustaqil ishni to'g'ri tashkil etishda o'quv topshiriqlarining ishlanmalarini eslatmalar yordamida beradi. Mustaqil ishslash usullari bilan bolalarni o'qituvchi maktabdagi birinchi darslaridan boshlab tanishtira boshlaydi. Bu fikrlash o'quvini shakllantiradi, matematik nutqni rivojlantiradi, kuchsiz o'quvchilaming materialni yaxshiroq tushunib olish ya hamma qatori o'z muvaffaqiyatlaridan quvonishlariga imkon yaratadi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Jumanova F., Avazova S., Jobborova G., Xusnetdinov U. Umumi pedagogika asoslari. – Toshkent, 2020
2. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. Pedagogika. –Toshkent, 2000
3. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent. 2008

### **KASRLAR HAQIDA TUSHUNCHA VA ULARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**Sh.Eshonqulova** Jizzax davlat pedagogika universiteti (PhD) o'qituvchisi

**M.Sapaboyeva** Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

**Sh.Eshonqulov** Jizzax davlat politexnika instituti (PhD) vb dotsent

**Eshonqulov G'urom** -48-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kasr tushunchasi nima ekanligi, hayotimizda qanday vaziyatlarda kerak bo'lishi, boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasrlarni qanday o'rgatish haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar:** kasr, kasr sonlar, surat, maxraj, kasr chizig'i, ratsional sonlar, yarim, chorak, nimchorak, to'g'ri kasr, noto'g'ri kasr, o'nli kasr.

Matematika fani oddiydan murakkablikka qarab tuzilgan bo'lib, asta sekin mavzular ham murakkablashib boradi. Matematika asosini sonlar tashkil qiladi. Biz ko'rishimiz mumkinki dastavval inson ehtiyojlari tufayli sonlar paydo bo'la boshlagan. Bu sonlar boshlab narsalarni sanash uchun kerak bo'gan. Lekin vaqt o'tishi bilan "Qancha", "Qanchadan", "Necha" savollariga bu sonlar orqali javob berish yetarli bo'lмаган.

Qadimda 5 ta ovchi bir o'ljani tutganlaridan so'ng teng bo'laklarga bo'lib o'ljani teng taqsimlaganlar. Lekin ovchilar o'zlariga qanchadan tegganlarini aniq sonlarda ifodalay olishmagan. Va shu tafayli kasr sonlarga ehtiyoj tug'ilashagan.

Biz yana shunga e'tibor qaratishimiz kerakki, butun sonlar to'plamida har doim qo'shish, ayirish, ko'paytirish amallarini bajarishimiz va natija butun son chiqishi o'rinnlidir. Lekin butun sonlar ustida bo'lish amalini bajarganda natija har doim ham butun son chiqavermaydi.

Masalan,  $5:2=2,5$     $8:3=2\frac{2}{3}$       bu hosil bo'lgan natijalar butun sonlar to'plamida

yo'q.

# МУНДАРИЖА

## УЧИНЧИ ШЎЪБА

### ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА УМУМТАЛЬИМ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШ МУАММОЛАРИ

---

<b>Жамолиддинова Д.М.</b> Терминларнинг лингвопоэтик хусусиятлари .....	5
<b>Raxmatov O.U.</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida milliy sport turlari asosida amaliy kompetentlikni rivojlantirish vazifalari.....	6
<b>G.A.Xolboeva., M.Anorboeva.</b> Badiiy matnni shakllantiruvchi leksik vositalar: omonim so'zlar.....	8
<b>Saydaliyeva D.B.</b> O'zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini o'rganish masalalari.....	11
<b>Алимов Б.Н.</b> Параболик сегмент юзини ҳисоблаш тарихидан .....	12
<b>Ismatova Z.A., Anorboyeva Yu.O., Nematullayeva Z.Z.</b> Ekologik madaniyatni shakllantirish metodikasi.....	14
<b>Шашиев А., Хасанова Ш.</b> Интерпретация теорема дезарга на плоскости.....	16
<b>Бакиева М.П.</b> Русча феълларни туслашни ўрганиш.....	18
<b>Усмонов М.Қ</b> Индивидуал бокс машгулот тизимида ясси қўлқопларни ўрни. ....	21
<b>Атабаев Ш.Э., مليева Э.И.</b> Формирование навыков устного и письменного счета учащихся на уроках математики в начальных классах.....	24
<b>Abdukarimov N.A., Anarboyev M.M.</b> Umumta'lim maktablari o'quvchilari bilan jismoniy madaniyat darslarini tashkil etish.....	27
<b>Каримжонов А., Мансурова Т.Т.</b> Содержательная оценка подготовки преподавателей начальных классов в области преподавания русскому языку как иностранному.....	28
<b>Kuttabekova G.T., Begimova N.A.</b> Texnologiyaga oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar va to'garak ishlarini tashkil qilish.....	31
<b>Masharipova U.A., Il'yasova D.A.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili va o'qish savodxonligi darslarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishning hozirgi holati.....	34
<b>Ахмедова Н.М.</b> Алгоритмические предписания, алгоритмические описания и алгоритмические процессы.....	35
<b>X. Gulomova, N. Zoyirova, Z. Qoryog'diyeva.</b> Yuklamalar ifodalaydigan ma`nolar sinonimiysi ustida ishslash .....	37
<b>Siddiqova Sh.I.</b> O'ziniki bo'lмаган ко'чирма gaplarda nolisoniy omillar.....	40
<b>Salayiddinov A.N.</b> Boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya fanida milliy harakatli o`yinlarnig ahamiyati.....	41
<b>Qoraboyev H.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligi ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyillari.....	44
<b>Musurmonova M.</b> Oz komplektli maktablarda o'qitish xususiyatlari.....	45
<b>Sh.Eshonqulova., M.Sapaboyeva., Sh.Eshonqulov., Eshonqulov G'.</b> Kasrlar haqida tushuncha va ularni o'rgatishning zamonaviy usullari.....	48
<b>Kulboeva D.A.</b> Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrleshiga o'rgatish.....	50
<b>Subanova F.</b> Boshlang'ich sinflarga harflarni to'g'ri o'qish va yozishning zamonaviy usullari.....	51
<b>Umarova G.M., Otahonova S.X.</b> Kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarni o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish. .....	54
<b>Qodirov M.E.</b> Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituchilarining kasb-hunarga yo'naltirishdagi muammo va yechimlari.....	56
<b>Pardaboyev S.B.</b> Yo'sinlarning tabiatdagi o'rni va tarqalish xudutlari.....	58
<b>Ismatova Z.A., Tursunova S.A., Nematullayeva Z.Z.</b> Predmetli darslarning turlari va o'tkazish metodikasi.....	59
<b>G.A.Xolboeva., D.M.Xoldorova.</b> Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini o'tish jarayonida milliy, ma'naviy tuyg'ularni shakllantirish.....	61
<b>Dexqonova M.I.</b> AKHL konseptini vogelantiruvchi til vositalarini konseptual hususiyati .....	64
<b>Akbarova M.Sh.</b> Tilshunoshkda g'ayriodatly birikmalar muammosi.....	66